



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 23-may, № 100 (8723)

Payshanba Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



PARLAMENTLARARO ALOQALAR JADAL RIVOJLANAYOTGANI MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-may kuni mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi raisi Numan Kurtulmush boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida Turkiya parlamenti raisi davlatimiz rahbariga Prezident Rejep Tayyip Erdogan'ning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. Ikki tomonlama hamkorlikning hozirgi yuksak bosqichi, barcha darajada faol muloqot va almashinuvlar davom etayotgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi.

O'zaro tovar ayirboshlash va investitsiya ko'rsatkichlari o'smoqda, qo'shma loyihalar va korxonalar, aviataqnovlar soni ortib bormoqda. Ikki mamlakatda qo'shma madaniy tadbirlar o'tkazilmoqda.

O'zbekiston va Turkiya qonun chiqaruvchi organlari o'rtasida samarali aloqalar yo'lga qo'yilgan.

Parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish, O'zbekiston — Turkiya hamkorligi kun tartibini shakllantirishda va oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi ustidan nazoratni ta'minlashda do'stlik guruhlarini va tegishli qo'mitalarning faol ishtiroki muhim ekanini ta'kidlandi.

Investitsiya dasturlarini ilgari surish, turizm, ishlabarmonlik va ta'lim almashinuvlarini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro tuzilmalar, xususan, Turkiya davlatlar tashkiloti doirasidagi parlamentlararo hamkorlik istiqbollari ham muhokama qilindi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'zbekiston — Turkiya:

MUNOSABATLARNING YANGI BOSQIHI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi raisi Numan Kurtulmush bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqot

Unda siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va parlamentlararo yo'nalishlarda O'zbekistonning Turkiya bilan hamkorligining bugungi holati hamda aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Suhbat chog'ida ikki davlat Prezidentlarining qat'iy siyosiy irodasi, ular o'rtasidagi yaqin, o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlar tufayli ikki tomonlama aloqalar keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga olib chiqilgani alohida qayd etildi.

So'nggi olti yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 1,5 marotaba oshib, Turkiya O'zbekistonning to'rtinchi asosiy iqtisodiy sherigiga aylangan, o'zaro savdo hajmini kengaytirish va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida sanoat kooperatsiyasi bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun imkoniyatdan yanada kengroq foydalanish lozimligi ta'kidlandi.

Muzokara davomida ijtimoiy va madaniy-gumanitar sohalarida aloqalarni yanada kengaytirish uchun ikki davlatda ham salohiyat yetarli ekanini, bu borada imkoniyatlarni birlashtirish zarurligiga urg'u berildi.

Ayniqsa, sog'liqni

saqlash yo'nalishida kadrlar salohiyatini oshirish, ilm-fan va ta'lim sohalarida qo'shma ilmiy loyihalarni yo'lga qo'yish, talabalar almashinuvini faollashtirish yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston va Turkiyaning qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlarini, oilaga bo'lgan munosabati o'xshashligidan kelib chiqib, oila va xotin-qizlar masalalarida ikki mamlakatning tegishli vazirlik va idoralari o'rtasida hamkorlikni kengaytirishga e'tibor qaratildi.

Uchrashuvda parlamentlar o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalasi ko'rib chiqildi. Xususan, Oliy Majlisning Buyuk millat majlisi bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhi va "O'zbekiston — Turkiya" parlamentlararo do'stlik guruhi o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash, qo'mitalar bilan ta'lim-tarbiya aloqalar o'rnatish bo'yicha yakdil fikr bildirildi.

Munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida ikki davlat parlamentlari o'rtasida hamkorlik bo'yicha tegishli hujjat loyihasini ishlab chiqish va imzolashga kelishib olindi.

Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi raisi Numan Kurtulmush faxriy mehmonlar kitobida dastxat yozib qoldirdi.

QONUN IJODKORLIGI SOHASIDA TAJIRIBA ALMASHILADI

Kecha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilovning Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi raisi Numan Kurtulmush boshchiligidagi delegatsiya a'zolari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Keyingi yillarda ikki davlat Prezidentlarining siyosiy irodasi va uzoqni ko'zlab amalga oshirayotgan oqilona siyosati natijasida ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi, xalqlarimiz o'rtasida ishonchli do'stlik atmosferasi yaratildi, aloqalarimiz keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga olib chiqildi.

Uchrashuvda ikki tomonlama o'zaro manfaatli hamkorlik jadal tus olgani, faol siyosiy muloqot olib borilayotgani, savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohalaridagi aloqalar sur'ati oshib borayotgani, samarali madaniy-gumanitar

almashinuvlar davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd qilindi.

Muloqot chog'ida delegatsiya a'zolariga "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalari ro'yobga chiqarish borasidagi sa'y-harakatlar hamda ikki palatali parlament faoliyati, qonun ijodkorligi yo'nalishi, quyi palata qo'mitalari, komissiyalari hamda deputatlarining asosiy vazifalari to'g'risida atroflicha ma'lumotlar berildi.

MINTAQAVIY ENERGETIK XAVFSIZLIK VA ISTIQBOLLI ILMIY LOYIHALAR

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari S. Safoyev "AcwaPower" kompaniyasi mintaqaviy rahbariyati bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuv

Unda energetikaning turli yo'nalishlaridagi hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi. Xususan, mintaqada energetika sohasini rivojlantirish va energetika xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy loyihalarni birgalikda ro'yobga chiqarish masalalari ko'rib chiqildi.

Muloqotda energetika va geosiyosat sohasida mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ta'lim dasturlari va tashabbuslarga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, tomonlar o'zaro qiziqish uyg'otgan boshqa masalalar yuzasidan ham fikr almashdi.

"Xalq so'zi".

ISHONCHLI KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLAR VA TADBIRKORLIK TARAQQIYOTI

Tadbirkorlik faoliyati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda va yangi ish o'rinlarini yaratishda katta ahamiyatga ega bo'lganligi sababli ushbu sohani kuchaytirish va uni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining markazida bo'lib kelmoqda.

Fikr

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz tomonidan 2021-yildan boshlab har yili avgust oyida tadbirkorlar bilan ta'lim-tarbiya o'zgarishi bo'yicha muloqot o'tkazish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yo'lga qo'yildi. Va bu tadbirkorlarga o'z faoliyatida yuzaga kelayotgan va ularni qiyayotgan tizimli muammolar yuzasidan bevosita davlat rahbariga murojaat qilish imkonini berdi.

Bu tizim, o'z navbatida, Konstitutsiyamiz 40-moddasida nazarda tutilgan har kimning davlat organlariga, mansabdor shaxslarga va xalq vakillariga murojaat qilish huquqining bevosita amalga oshirilishini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlash borasida bir qator muhim huquqiy normalar aks ettirildi.

Xususan, davlat tomonidan qulay investitsiyaviy va ishlabarmonlik muhiti ta'minlanishi, tadbirkorlarning qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyat bilan erkin shug'ullanishi, monopoliy faoliyat qonun bilan cheklanishi va tartibga solinishi, davlat tomonidan halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratilishi hamda yerdan xususiy mulk sifatida foydalanish imkonligi borasidagi normalar shular jumlasidandir.

O'z navbatida, ushbu konstitutsiyaviy normalar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynayotgan tadbirkorlik faoliyatining huquqiy kafolatlarini yanada kuchaytirdi.

Qayd etish joizki, oxirgi yillarda yurtimizda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi hamda aholining ish bilan bandligini ta'minlash borasidagi o'rni va roli oshib bormoqda.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarida

FRAKSIYALAR QANDAY TAKLIFLARNI ILGARI SURDI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi tomonidan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi qonuni loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonun loyihasi O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi tomonidan manfaatdor idoralarning vakillari bilan hamkorlikda ishlab chiqilib, unda Prezidentimizning sohaga oid Farmon va qarorlarida chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tartibga solishga qaratilgan ko'rsatma va topshiriqlari o'z aksini topgan.

Muhokamalar davomida O'zLiDeP fraksiyasi vakillari tomonidan sanitariya jihatdan tozalashga ixtisoslashtirilgan va tashkilotlarning huquqiy faoliyatini belgilash, "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zolari tomonidan chiqindilarni ishlashda tabiatni muhofaza qilish talablarini buzganlik, xususan, qattiq maishiy va qurilish chiqindilarini belgilanmagan joylarga tashlash hamda suyuq maishiy

chiqindilarni to'kkanlik uchun moliyaviy jarimalar qo'llashga doir normalar kiritish taklif etildi.

"Adolat" SDP fraksiyasi vakillari yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda qonun hujjatlari talablarining buzilishi tufayli yetkazilgan zararni o'rnini qoplash hamda foydalanish xususiyatini yo'qotgandan so'ng atrof-muhitga zarar yetkazuvchi ishlab chiqariladigan va import qilinadigan qadoqlash materiallari va tovarlarga ekologik yig'im institutlari joriy etish lozimligini aytdilar.

O'zXDP fraksiyasi a'zolari tomonidan esa chiqindilarni utilitatsiya qilish hamda ularning hosil bo'lishini kamaytirishga doir faoliyatni rag'batlantirishning iqtisodiy

mexanizmlarini belgilash bo'yicha bir qator takliflar ilgari surildi.

Yig'ilishda aytilganidek, ushbu qonun loyihasi chiqindilarni boshqarish borasida mavjud amaliyotni yanada takomillashtirish, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat nazorati samaradorligini oshirish, maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilitatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish borasida davlat va xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Ishtirokchilar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar, siyosiy partiyalar fraksiyalari tomonidan ilgari surilgan takliflar asosida qonun loyihasi yanada takomillashtiriladigan bo'ldi.

Budjet mablag'lari maqsadli sarflanishi lozim

Parlament quyi palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari hamda Budjet va iqtisodiy masalalar qo'mitalarining kengaytirilgan

qo'shma yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining "2024-yilning birinchi choragida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining bajarilishi holati yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Unda keltirilishicha, har yilgi Davlat budjetining maqsadli sarflanishi bo'yicha qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2023-yil 11-sentabrdagi tegishli qaroriga asosan 2024-yilda 5 ta shahar, 48 ta shaharcha hamda 116 ta qishloq aholi punktingin shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish belgilangan.

Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun joriy yilda Davlat budjetidan 172,5 mlrd. so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturi doirasida 51,8 mlrd. so'm o'zlashtirilgan.

HAR 1000 NAFAR DOIMIY AHOLIGA O'RTACHA 103 TA YENGIL AVTOMOBIL

- Statistika agentligidan olingan idoraviy ma'lumotlarga ko'ra 2024-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekistonda jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan jami avtomobillar soni **4 020 744** tani tashkil etgan.
- Jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan yengil avtomobillar soni har **1000** nafar doimiy aholiga o'rtacha **103** ta to'g'ri kelgan.
- Ma'lumot uchun, aholiga tegishli jami avtotransport vositalari soni 2017-yilda **2 273 419** ta bo'lgan.



Fakt va raqamlar

Senator va hayot

JOYLARDA
O'RGANISHLAR
O'TKAZILMOQDA

Ma'lumki, Oliy Majlis Senati tomonidan muntazam ravishda mahalliy Kengashlar bilan hamkorlikda mamlakatimiz tuman va shaharlarida qonunlar ijrosi yuzasidan o'rganishlar o'tkazib kelinmoqda. Muhimi, shu jarayonda keng jamoatchilik va aholi vakillariga qonunchilikdagi yangiliklar mazmun-mohiyati batafsil tushuntirilmoqda, mas'ullarga tavsiyalar berilmoqda. Bu esa qonunlar ijrosida muhim ahamiyat kasb etayotir.

Ana shunday o'rganishlar doirasida senatorlar hududlarda aholi vakillari bilan ham muloqotlar o'tkazib, ularni tashvishga solayotgan muammolari hal etish choralari haqqida ma'ruzalar o'tkazib berilmoqda.

Kuni kecha senatorlar Orziqul Soatov va Baxtigul Bo'tayeva xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi deputatlari bilan birgalikda Denov va Sherobod tumanlaridagi bir qator umumta'lim maktablari faoliyatini ko'zdan kechirdi. O'quv jarayonining borishi,

sinflarning jihozlanishi hamda bolalarni sportga jalb etish borasidagi ishlar diqqat markazida bo'ldi.

Shuningdek, senator B. Bo'tayeva Qiziriq tumanidagi 17-umumta'lim maktabi bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan uchrashuv o'tkazdi. Suhbat davomida u joriy yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash" yili deb e'lon qilingani va bu esa yoshlarga chuqur bilim olish, o'zlar istagan kasb-hunarlarini puxta egallab, mamlakat taraqqiyoti yo'lida xizmat qilishlari uchun katta imkoniyat ekanligini alohida ta'kidladi.

QONUN IJODKORLIGI
SOHASIDA TAJRIBA
ALMASHILADI

Konstruktiv va o'zaro ishonch ruhida kechgan uchrashuvda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi parlamentlararo aloqalarini yanada mustahkamlash, uni yangi mazmun bilan boyitish, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, "O'zbekiston — Turkiya" parlamentlararo do'stlik guruhi faoliyatini va uning doirasida amalga oshirilayotgan qator ijobiy ishlar e'tirof etilib, uning faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, maslahatlashuv uchrashuvlarini muntazam o'tkazishni yo'lga qo'yish, ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasida aloqalar o'rnatishga kelishib otiladi.

O'z navbatida, Buyuk millat majlisi raisi keyingi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan muvozanatli, ochiq va konstruktiv tashqi siyosat, keng ko'lami islohotlar va ularning natijalarini e'tirof etib, parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash, shu yo'nalishdagi muloqotlarni izchil olib borish har tomonlama foydali ekanini qayd etdi.

O'zbekistonga tashrifimiz doirasida o'tkaziladigan uchrashuvlar amaliy va mazmunli o'tishiga ishonaman, — dedi N. Kurtulmush. — Bugungi muloqot ham

samarali va qizg'in o'tdi. Bilimimiz, O'zbekiston dunyo tamadduniga, ilmiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan buyuk allomalar, olimlar yurti. Buni nafaqat biz, balki jahon e'tirof etadi. Ana shunday ilmiy namoyandalarni yetishtirgan zaminda bo'lib turganimizdan baxtiyormiz. Aytish mumkin, so'nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lida izchil islohotlar olib borilayotgani diqqatga sazovor. Ayniqsa, ilmiy-fan, san'at, madaniyat kabi sohalarida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar o'z samarasini berayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Shu o'rinda ikki davlat yetakchilarining yaqin do'stligi, o'zaro hurmati tufayli barcha sohada aloqalarimiz yanada mustahkamlanib borayotganini alohida qayd etish joiz. Biz, parlament vakillari ham O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlik, madaniy-gumanitar, fan-ta'lim, turizm va boshqa sohalarida ikki hamda ko'p tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishda faol bo'lamiz. Bugungi uchrashuvimiz esa parlamentlararo aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchrashuvda hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha kelishib olinadi.

"Xalq so'zi".

MAHALLA — MA'RIFAT MASKANI

Naf'ing agar xalqqabeshak erur,
Balki bu naf o'zinggako'prak erur.

Alisher Navoiy hazratlari xalqqa foyda keltirish, odamlar koriga yarash, beminnat xizmat qilish, avvalo, har bir insonning o'zi uchun katta yaxshiligi ekanligini juda topib aytgan. Negaki, ezgulik ezgulikni yaratadi, ortidan ikkinchi bir yaxshilikni yetaklab keladi. Buni keyingi yillarda yuzimizda ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, jumladan, mahallani ma'rifat va ezgu amallar maskaniga aylantirish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar misolida ham ko'rish qiyin emas.

Mushohada

Bu haqda atroflicha to'xtalishdan oldin oxirgi paytlarda davlatimiz rahbari tomonidan ma'naviyat va ma'rifatga katta e'tibor berilayotgani, ilm-fan, ta'lim va tarbiyaga hayot-mamot masalasi sifatida qaralayotganini qayd etish zarur. Xususan, Prezidentimiz boshchiligidagi o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidan so'ng bu masalaga bo'lgan e'tibor, yondashuv va qarashlar tubdan o'zgaradi.

O'zbekiston Mahallalari uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashabbusi bilan mahalla fuqarolar yig'ililarida ma'rifat targ'iboti bo'yicha tatbiq etilayotgan yangicha usullar bu boradagi ishlarining mantiqiy davomi bo'ldi. Bu ezgu tashabbus Namangan viloyatining Uychi tumanida

Uychi tajribasi asosida boshlangani bizni behad quvontiradi.

Ma'lumki, Uychi tumani mahallalari o'ziga xos umuminsoniy qadriyatlar va ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan urf-odatlar hamda kasb-hunarlariga egaligi bilan ajralib turadi. Bugun tumanda 56 ta mahalla bo'lib, ularning barchasi aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oila budgetini oshirish va fuqarolarni ish bilan ta'minlash bo'yicha o'ziga xos tajribaga ega. Nega ana shu ulkan tajribadan foydalanmasligimiz kerak, albatta, foydalanamiz.

Mahalladan boshlangan ma'rifat quvvati o'zgacha bo'ladi, desak, mubolag'a emas. Negaki, qo'ni-qo'nilar va mahalla faollari bilan qilingan harakatda samimiyat va milliylik doimo bo'tib turadi, natija ham shunga yarasha bo'ladi. Bu biz uchun ayni muddao. Zero, ongi va dunyoqarashi

o'zgargan, ichki olami boy inson jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi, bu yo'lida tinmay mehnat qiladi. Shunday ekan, bugun mahallalarni ma'rifiy suhbatlar, ma'naviy-madaniy kechalar hamda yozuvchi va san'atkorlar tez-tez kelib turadigan mo'tabar go'shaga aylantirish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar yaqin istiqbolda o'z samarasini berishiga ishonamiz.

Mashhur yozuvchilardan biri ta'kidlaganidek, "Inson tani uchun sihat-salamatlik qanchalik zarur bo'lsa, qalb uchun ezgulik shunchalik muhim".

Darhaqiqat, inson jismin sog'lom bo'lishi mumkin, agar u qalban majruh bo'lsa, atrof-dagilar uchun bundan ortiq musibat yo'q. Shunday ekan, yon-atrofga ezguliklarni, yaxshiliklarni qancha ko'p yoysak, ko'p targ'ib qilsak, jamiyat uchun shuncha foyda keltiramiz.

Shu bois Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashabbusi bilan Uychi tumanidagi mahallalarda ma'rifat targ'ibotchi lavozimi tajriba tariqasida yo'lga qo'yilayotganini olqishlaymiz. Zero, bu ma'rifat, axloq-odob mahalladan oilaga, oiladan maktabga, undan oliy ta'lim muassasalariga qarab yo'naltirilganligini anglatadi.

Mahallada bo'lib o'tgan bir uchrashuv hanuz ko'z o'ngimda. Unda bugun dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar,

turli mintaqalardagi tahlil vaziyatlar haqida so'z bordi. Ayni chog'da ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlari, ekstremizm, diniy aqidaparastlik, firibgarlik va buzg'unchilik kabi g'arazi odatlarning salbiy oqibatlarini chuqur tushuntirdik. Shu jarayonda bunday muloqotlar judayam zarur ekanligini yana bir karra his etdik. Yoshlarning o'zi bizdan shuni iltimos qilishdi.

Yodingizda bo'lsa, ilgari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, viloyat bo'limi, tuman va shahar bo'linmalari faollari mahallada bo'lib, faqat tavsiyalar berib qaytar, amalga oshirish fuqarolar yig'ini zimmasiga tushardi. Chunki bu kabi ishlarini bajaradigan lavozimning o'zi yo'q edi. Yangi tashkil etilayotgan ma'rifat targ'ibotchilari mahallalarda ma'naviyat va ma'rifiy yo'nalishdagi yumushlarni yuqori saviyada olib boradi.

Aytish joizki, targ'ibot ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, Mamlakatimizda ma'rifiy ishlar tobora izchillik kasb etmoqda. Fuqarolar yig'inlarida faoliyat boshlayotgan ma'rifat targ'ibotchilari esa ana shu sa'y-harakatlarga yangicha sur'at beradi va natijada mahalla haqiqiy ma'rifat maskaniga aylanadi, deb ishonamiz.

shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlardagi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda aholining yurtimizda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayoniga daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida raqamli targ'ibot asosida ish olib borish ham ma'naviyat targ'ibotchilardan katta kuch va bilim talab etadi.

Endi ma'naviyat targ'ibotchi qanday fazilatlariga ega bo'lishi zarurligi haqida ham bir o'xtamga kelish kerak. Ushbu lavozimlarga obro'-e'tibor qozongan, ma'rifatlil, mahalla ahlini orqasidan ergashtira oladigan insonlar tanlab olinsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Yaqinda "Qo'rg'oncha" mahalla fuqarolar yig'inida Maqsudaxon Qirg'izova ma'rifat targ'ibotchi sifatida faoliyat boshlagani aytib qildi. Bundan faqat xursand bo'ldik. Agar mahallalarga xuddi shunday munosib insonlar tanlanadigan bo'lsa, kutilgan natijalarga, albatta, erishamiz.

Mamlakatimizda ma'rifiy ishlar tobora izchillik kasb etmoqda. Fuqarolar yig'inlarida faoliyat boshlayotgan ma'rifat targ'ibotchilari esa ana shu sa'y-harakatlarga yangicha sur'at beradi va natijada mahalla haqiqiy ma'rifat maskaniga aylanadi, deb ishonamiz.

Ikromxon NAJMIDDINOV,
"Nuroniy" jamg'armasi Namangan viloyati bo'limi raisi,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

DORI VOSITALARI MUOMALASI
TARTIBGA SOLINADI

Kuni kecha Prezidentimiz Sog'liqni saqlash loyihalari markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va yangi takliflar taqdimoti bilan tanishib, jamiyatda sog'lom turmush tarzini keng yoyish orqali kasalliklarning oldini olish, odamlarda o'z salomatligiga mas'uliyat hissini kuchaytirish hamisha muhimligini ta'kidladi.

Aks sado

Darhaqiqat, inson salomatligi — eng behavo boylik. Shundan kelib chiqib qayd etish joizki, mamlakatimizda so'nggi yillarda sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oxirgi yetti yilda sog'liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi 5,9 trillion so'mdan 33,5 trillion so'mga, ya'ni 6 barobar oshirildi.

O'tgan qisqa davrda tibbiyotning birlamchi tibbiy sanitarriya yordami tizimidan tortib zamonaviy, yuqori texnologik tibbiy xizmat ko'rsatadigan respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlariga qo'llanilgan tibbiyotning eng qimmatli xizmat ko'rsatishi bo'ldi. Ya'ni xizmat ko'rsatish ko'lami, murakkabligi bilan bir-biridan farq qiladigan turli darajadagi tibbiyot muassasalari faoliyat yuritmoqda.

Tibbiy xizmatlarni xalqqa yaqinlashtirish borasida birlamchi tizim muassasalarini tarmog'i kengaytirilib, unda skrining tadbirlari, maqsadli patronaj tizimi, "Elektron poliklinika" tizimi joriy

qilindi. Yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot muassasalarining hududlarda filiallari tashkil etildi, telemeditsina yo'lga qo'yildi.

Albatta, bularning barchasi aholi salomatligini muhofaza qilish, onalar va bolalar sog'lig'ini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda, taqdimotda ilgari surilgan har bir yangi taklif sog'liqni saqlash tizimida muammolarni chuqur o'rganish asosida tibbiyotning eng ko'p murojaat qilinadigan birlamchi bo'g'inini va tez tibbiy yordam tizimida fuqarolar va tibbiyot xodimlarini qiyinayotgan masalalar yechimiga qaratilgan, davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etishdagi kamchiliklarni bartaraf qilish, fuqarolar va tibbiyot muassasalarini dori vositalari bilan ta'minlanishini yaxshilash ko'zda tutilgani bilan ham muhimdir. Ayniqsa, ushbu takliflarni ishlab chiqishda xorijiy ekspertlar jalb etilgan holda ularning tajribasini milliy

tibbiyotimizga integratsiya qilish nazarda tutilgani tizimni xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini kengaytiradi. Jumladan, birlamchi bo'g'inda faoliyat yurituvchi shifokor va hamshiralari vazifalari qayta taqsimlanadi, yil yakuniga qadar 7 ta eng ko'p uchraydigan kasallik va holat bo'yicha kafolatlangan paket hamda yana 300 ta klinik protokol qayta ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, Toshkent shahrida joriy yilda sohani raqamlashtirish bo'yicha yangi tizim yaratilishi, jumladan, poytaxtdagi tibbiyot muassasalarini yangi kompyuter va texnika vositalari bilan jihozlanib, "Elektron poliklinika", "Elektron shifoxona" tizimlari yaratilib, davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarining to'liq yo'lga qo'yilishi aholiga kafolatlangan paket asosida bepul tibbiy xizmat ko'rsatish, sohaga ajratilayotgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Asosiysi, bu umumiy soliqlar hisobidan bajarilib, odamlardan qo'shimcha badallar undirilmaydi.

Dorilarga ehtiyojni shakllantirish, ularni xarid qilish

Tibbiyot muassasalarini xalqimizga yanada yaqinlashtirish, aholining barcha qatlami sifatli tibbiy xizmatlar bilan qamrab olinishini ta'minlash, fuqarolarning tibbiy yordamdan foydalanish qulayligini oshirish uchun zamin yaratadi. Eng muhimi, har birimizning salomatligimiz, birinchi navbatda, o'zimizga bog'liq ekanini his qilgan holda sog'liqimizga mas'uliyatli bo'lishni hech qachon esdan chiqarmasligimiz dardkor.

Zumrad BEKATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Muhokama

HAMKORLIK BO'YICHA
KOMISSIYA YIG'ILISHI

Buxoro shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashining hamkorlik bo'yicha komissiyaning 9-yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Tadbirida parlamentlararo va hududlararo hamkorlikni rivojlantirishning ayni holati hamda istiqbollari muhokama qilindi. Ayni chog'da tadbir kun tartibidan o'r'in egallagan ikki mamlakat jamoat va diniy tashkilotlari hamkorligini mustahkamlashda parlament yuqori palatalarining o'rni, mehnat migratsiyasi va ta'lim sohalaridagi aloqalar masalalari ham ko'rib chiqildi.

Muzokaralar davomida qonun ijodkorligi jarayonini raqamlashtirish va iqtisodiyotni raqamli o'zgartirish tajribasi yuzasidan hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari bo'yicha ham fikr almashildi.

Komissiya a'zolari tomonidan O'zbekiston va Rossiya o'rtasida erishilgan oliy darajadagi kelishuvlarning ijrosini ta'minlashga ko'maklashish, ikki tomonlama savdo-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish hamda ikki davlat mintaqalari o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlash uchun parlament diplomatiyasi mexanizmindan faol foydalanish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Muhokama chog'ida bildirilgan takliflar va parlament diplomatiyasi mexanizmlarini hisobga olgan holda Parlamentlararo komissiyaning "Yo'l xaritasi"ni yangilash to'g'risida kelishib olinadi.

Yig'ilish yakunida O'zbekiston Respublikasining Buxoro shahri va Rossiya Federatsiyasi Drogiston Respublikasining Derbent shahri o'rtasida birodarlik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida bitim imzolandi.

"Xalq so'zi".

FRAKSIYALAR QANDAY TAKLIFLARNI ILGARI SURDI?



Shu hisobdan joriy yilning birinchi choragida 20 ta texnik-normativ hujjatni qayta ko'rib chiqish va maromiga yetkazish rejalashtirilgan. 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra milliy shaharsozlik normalari va qoidalarini xalqaro normativ va standartlarga uyg'unlashtirish (moslashtirish) ishlari doirasida 29 ta texnik-normativ hujjat qayta ko'rib chiqilgan.

Munozaralar davomida issiqlik ta'minoti obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash uchun yo'naltirilgan xarajatlar to'liq o'zlashtirilgan deputatlarning e'tiroziga sabab bo'ldi. Deputatlar aholining markazlashgan issiqlik ta'minoti xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish,

birga, Davlat budgetining maqsadli sarflanishiga alohida e'tibor qaratish, ajratilgan mablag'lardan o'z vaqtida samarali foydalanish, budget mab'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan qator taklif va tavsiyalar berildi.

Yig'ilish yakunida kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitalarning qo'shma qarori qabul qilindi.

Shaharsozlikka oid qonun hujjatlariga qay darajada rioya qilinyapti?

Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan yig'ilishda

energiya tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash yuzasidan o'z takliflarini bildirdi. Shu bilan

qurilishda shaharsozlikka oid qonun hujjatlariga, shaharsozlik norma va qoidalariga, davlat standartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish holati yuzasidan Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyaing axboroti eshitildi. Aytilganidek, 2021 — 2023-yillarda bino va inshootlar qurilishida shaharsozlikka oid qonun hujjatlariga hamda shaharsozlik norma va qoidalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida Inspeksiya tomonidan 2021-yilda 30454 ta, 2022-yil — 32531, 2023-yilda esa 36245 ta obyektning qurilish ishlari ustidan tegishli davlat nazorati o'rnatilgan.

Ushbu jarayonda Inspeksiya tomonidan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli maddasi bo'yicha o'tgan uch yilda 17 mingga yaqin ma'muriy jazo choralarini (jarimalar) qo'llanildi. Qurilish obyektlarida sifatisiz qurilish materiallari va buyumlardan foydalanilganlik uchun tegishli organ va tashkilotlarga 1568 ta taqdimnoma kiritilgan.

Shuningdek, 2023-yil va 2024-yilning birinchi choragida respublikamizdagi mavjud ko'p xonadonli uylardan texnik foydalanish, ularni saqlash

masalalarini takomillashtirish, uylarning tayanch qobiliyati va zilzilbardoshligini pasayishiga, ekologik tashqi ta'sirlarga chidamsiz bo'lib qolishiga sabab bo'ladigan holatlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish borasida nazorat tadbirlari o'tkazilgan.

Munozaralar davomida deputatlar Inspeksiya tomonidan qurilish tugallangan yangi ko'p xonadonli uylarni foydalanishga topshirishni tartibga solish va uylarni tizimli ravishda foydalanish (ekspluatatsiya)ga qabul qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan qiziqildi.

Mutasaddilarning aytishicha, ko'p kvartirali uylarni foydalanishga qabul qilish jarayonida ularga boshqarish xizmatini ko'rsatuvchi boshqaruvchi tashkilotlarni jalb etish va ularni "Mening uyim" billing axborot tizimiga kiritish orqali ekspluatatsiyaga qabul qilish tadbirlari jadal ravishda amalga oshirilmoqda. Bu esa uylarning qarovsiz qolib ketishining oldini olish, ulardagi joylar mulkdorlariga, ularning roziligi bilan belgilanadigan mab'lum bir aniq haq hisobiga talab darajasidagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Muhokama davomida ushbu sohada olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari

e'tirof etilib, bino va inshootlarning zilzilbardoshligini ta'minlash choralarini ko'rish, loyihachi tashkilotlarning mualliflik nazorati xodimlari vakolatini oshirish bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar berildi.

Yakunda kun tartibidagi masala yuzasidan kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

Bioxilmaxillikni saqlash — barqaror rivojlanish omili

Quy palatadagi O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi hamkorligida 22-may — Xalqaro bioxilmaxillikni saqlash kuniga bag'ishlangan davra suhbat o'tkazildi.

"Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda biologik xilmaxillikning ahamiyati: bugungi holat va istiqboldagi rejalar" mavzuida tashkil etilgan tadbirida mamlakatimizda biologik xilmaxillikni saqlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar xususida so'z yuritildi.

Ta'kidlanganidek, hozirgi kunda O'zbekiston xalqaro huquqning teng ishtirokchisi sifatida biologik xilmaxillikni asrash yo'nalishida bir qator xalqaro hujjatlarini ratifikatsiya qilgan.

O'zbekiston 1995-yildan boshlab Biologik xilmaxillik to'g'risidagi

Konvensiyaga qo'shilgan va o'ziga bir qator, jumladan, biologik xilmaxillik ishonchli saqlanishini ta'minlash maqsadida mavjud muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni kengaytirish va yangilarini tashkil etish majburiyatini olgan.

O'tgan davrda mamlakatimizda sohaga oid ko'plab muhim qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish hamda 10 yilga mo'ljallangan biologik xilmaxillikni saqlash strategiyalari samarali amalga oshirilmoqda. Biologik xilmaxillikni saqlab qolish aynan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda to'laqonli amalga oshirilishini hisobga olgan holda bugun ular maydoni mamlakat umumiy maydonining 14 foiziga yetkazildi. Ushbu ko'rsatkich bundan 5 yil avval 5,2 foizni tashkil etardi.

Munozaralar davomida ekologik madaniyatni aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida shakllantirish, atrof-muhitni asrab-avaylash hamda yashil bog'lar barpo etish borasida fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalar bildirildi.

Tadbir yakunida aytilgan fikrlar inobatga olingan holda tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

"Xalq so'zi".

FIZIOLOGIYA: INSON SALOMATLIGI VA TIBBIYOTNING MUSTAHKAM ZAMINI

Sog'lom millatni ilmi, bilimni qilib tarbiyalash, aholi salomatligini mustahkamlash bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Binobarin, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni kamol toptirish, sog'liqni saqlash tizimiga zamonaviy va samarali boshqaruv usullari hamda moliyaviy mexanizmlarni joriy qilish orqali tibbiy xizmat sifatini oshirish bo'yicha bir qator vazifalar hamda yangi yo'nalishlar belgilab berilgan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki muvaffaqiyatlarning tagzaminida, eng avvalo, salomatlik yotadi.

Fan va amaliyot

Davlatimiz rahbari chiqishlaridan birida ayni shu masalaga alohida to'xtalib, shunday degan edi: "Sog'lom hayot tarzi haqida olti yildan beri gapiryapmiz. Lekin Sog'liqni saqlash vazirligi buni hali joy-joyiga qo'ya olmayapti. Sog'lom ovqatlanish ratsioniga doir tavsiyalar odamlarga yetkazilmayapti, turli yoshdagi kishilar uchun jismoniy mashqlarni o'rgatish ishlari yo'q. Aslida, inson salomatligi, tibbiyotning zaminini ham shular ku. Shu bois "To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi" yangi umummilliy harakatini mahalladan boshlaymiz. Bu harakatda yoshu qari — barcha yurtdoshlarimiz o'z o'rnini topishi kerak".

Katta imkoniyatlar eshigi

Ma'lumki, fiziologiya fani fundamental fan bo'lib, organizmning hayotiy jarayonlarini, uni tashkil etuvchi fiziologik tizimlarni, shuningdek, atrof-muhit tashqi omillarining hayot jarayonlariga ta'sirini o'rganadigan, muxtasar aytganda, hayot haqidagi fundamental fanidir. Bu fan insoniyat rivojlanishi jarayonida — ontogenez va filogenezda ong, tafakkur, bilish va o'rganish, sog'liqni saqlashning tub mexanizmlarini o'rgatadi. Sodda qilib aytganda, u tibbiyot hamda veterinariyaning asosi hisoblanadi. Jahonning fan sohasidagi nufuzli sovrinlaridan biri — Nobel mukofotining aynan fiziologiya va meditsinaga berilishi ham ushbu fanning insoniyat farovon hayoti va baxtli kelajagi yo'lida nihoyatda ulkan ahamiyatga ega ekanligining yorqin isbotidir.

Mazkur fan oldidagi asosiy maqsad esa tirik organizmda kechayotgan turli fiziologik-funksional jarayonlarni chuqur o'rganish, ularga tashqi va ichki omillar ta'siri ostidagi funksional o'zgarishlarni tahlil qilishdan iborat. Tug'ulish, o'sish, rivojlanish, oziqlanish, ong, tafakkur, bilim olish, modda va energiya almashinuvi, organlar faoliyati, shuningdek, barcha hayotiy jarayon, jumladan, kasalliklar ham inson fiziologiyasi bilan bog'liq. Shu bois dunyo ilmiy markazlarida fiziologiya keyingi paytda eng tez rivojlanayotgan fanlardan biriga aylandi. Ayniqsa, molekulyar fiziologiyaning paydo bo'lishi ko'plab kashfiyotlarga katta turki berdi, bugungi kunda ulardan nafaqat fiziologiya, balki tibbiyot, bioinformatica, pedagogika, psixologiya, sud-tibbiy ekspertizasi, arxeologiya, antropologiya kabi muhim sohalarida keng foydalanilmoqda.

Shu ma'noda, fiziologiyaning ilmiy taraqqiyoti, insoniyat salomatligi va kelajagi uchun ahamiyatini tasavvur qilish qiyin emas. Biroq ma'lum muddat davomida bu fan e'tibordan chetda qoldi. Unutilayotgan ushbu fan uchinchi Renessans avlodini tarbiyalash, iqtidorli yoshlarga zamonaviy bilimlarni o'rgatish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash eng ustuvor yo'nalishga aylangan bugungi islohotlar sharoiti bilan, ta'bir joz bo'lsa, qayta tirilmoqda.

Yaqinda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rahbariyatining tashabbusi bilan oliygohda Fiziologiya ilmiy-tadqiqot markazi ochildi. Bu Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ilm-fan va ta'lim rivoji yo'lida olib borilayotgan tizimli islohotlarning yuksak samarasi, yurtimizda fiziologiya fani qayta oyoqqa turayotganining yorqin namunasidir. Zotan, O'zbekistonda fiziologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarga ilk bor o'tgan asrning 20-yillarida ushbu universitetning Fiziologiya kafedrasida asos solingan.

Afsuski, yaqin o'tmishda mamlakatimizda nufuzli mustaqil institut sifatida shakllanib, samarali faoliyati dunyoda e'tirof etib kelinayotgan Fiziologiya ilmiy-tadqiqot institutining nomi sohadan yiroq bo'lgan ayrim mansabparastlarning ta'siri ostida o'zgartirildi. Dastlab Fiziologiya va biofizika instituti deb ataldi. Vaholanki, biofizika — bu fiziologiya fanini o'rganuvchi usullardan biri hisoblanadi, xolos. Ma'lum muddatdan so'ng esa ular g'arazli niyatlariga yetib, hatto institut nomidan ham "fiziologiya" so'zini olib tashlashdi. Fandan xabaror kishilar yaxshi bilishadiki, biofizika

usuli biologiyada xuddi biomatematika, bioinformatica, biogeometriya, biokimyo, kvant fiziologiyasi, bioarxeologiya, bioantropologiya kabi usullarning birigina sanaladi.

Milliy universitetda Fiziologiya ilmiy-tadqiqot markazi ochildigani fiziologiya fani fidoyilarining orzusi qayta ushlab, dillidagi gap bo'ldi, desak, ayni haqiqat. Zotan, fiziologiya mutaxassisligiga talab juda katta bo'lib, jumladan, oliy o'quv yurtlarining fiziologiya, ekologiya fakultetlarida, barcha tibbiyot, jismoniy tarbiya, pedagogika universitetlarida, shuningdek, sog'liqni saqlash mutaxassislari va boshqa joylarda kadrlar yetishtirib, talab nihoyatda katta. Shu bilan birga, barcha oliy o'quv yurtlarida Yosh fiziologiyasi fani davlat ta'lim standartlariga kiritilgan va dars sifatida o'tiladi.

Markaz oldiga qo'yilgan asosiy vazifa, avvalo, talaba va yosh olimlar orasida fiziologiya fanini keng targ'ib qilish, jahon fiziologiyasi tarixini chuqur o'rganishdan iboratdir. Qolaversa, bo'lg'usi mutaxassislarni innovatsion fiziologik laboratoriyalar bilan yaqindan tanishtirish, mustaqil eksperimental o'tkazish orqali yuqori malakali, professional, bugungi zamon talabiga mos kadrlarni tayyorlashga ko'maklashish maqsad qilingan.

Ishonamizki, yosh olimlar boshini qovushirayotgan mazkur markaz tabiat sirlarini ochish, hozirgi kun talabi bo'lmish to'g'ri ovqatlanish, sog'lom turmush tarzini qaratib berish va millat salomatligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydigan ilmiy yangiliklarga platforma bo'ladi. Chunki bu yerda olib boriladigan fiziologik tadqiqotlar eng so'nggi fan yutuqlarini jamlagan molekulyar-genetik, kvant fiziologiyasi, oziq-ovqat xavfsizligi fiziologiyasi, informatsion fiziologiya kabi uslublar bilan uyg'unlashib, odam va hayvonlar organizmining hali mavhum sirsashtirish o'rganishda yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, hayotimiz farovonligiga xizmat qiladigan kashfiyotlarga beshik bo'lishi muqarrar. Binobarin, ustozimiz akademik A. M. Ugolev aytganidek, "Fiziologiya insoniyatning salomatligi va baxti haqidagi fani".

Ilm poydevori

mustahkamlanmoqda

Fransuz fiziolog olimi Klod Bernar ta'bir bilan aytganda, ilmining poydevori fiziologiyadir, chunki barcha fanlar uning asosida yotadi. Uning "Tibbiyotda bitta fan mavjud: hayot haqidagi fan yoki fiziologiya" degan so'zlar nechoqli haqiqat ekanligini hayotning o'zi tasdiqlab turibdi.

Darhaqiqat, keng ma'noda tushuniladigan fiziologiya bilan tibbiyot va veterinariyaning bir-biridan ayro tasavvur etib bo'lmaydi. Ular fiziologiya asosiga qurilgan. Birinchi Renessans davrining yetuk allomalaridan biri, tibbiyot fani va ilmining sultoni, buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino fiziologiya fanining asoschisi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Negaki, u birinchi inson bo'lib inson va hayvonlarda fiziologik tajribalar qilib, ana shu asosda kasalliklarni davolashga muvaffaq bo'lgan. "Tib qonunlari" atalmish benazir asarida esa fiziologiya jarayonlari ilmiy jihatdan ko'rsatib berilgan.

Shu bois u bugungi kunda ham dunyodagi barcha tibbiyot oliy o'quv yurtlarida eng muhim dasturiy fan sifatida o'qitiladi. Harvard, Kembrij, Nyu-York, Stanford va boshqa taniqli universitetlarning kutubxonalarida eng ko'p so'raladigan va o'qiladigan kitoblar ham Ibn Sino asarlari hisoblanishi diqqatga sazovordir.

Qalbimizda faxr va iftixor hissini jo'shdiradigan yana bir jihat — xalqaro doirada qo'llaniladigan "meditsina" atamasining kelib chiqishiga "madadi Sino", ya'ni "Sino'ning madadi" iborasi sabab bo'lgani barchaga ayon. Shu hisobda o'zbek tilida "meditsina" so'zining qo'llanilishi xato emas, balki ulug' ajdodimizning beqiyos xizmatlariga hurmat bo'lar edi.

Mamlakatimizda fiziologiya fanini rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak



e'tibor eng muhim boylik bo'lgan inson salomatligini mustahkamlash, ong va tafakkurni, bilish jarayonini rivojlantirish sari tashlangan muhim qadam, deb baholash mumkin. Chunki sog'lom organizmda ro'y beradigan fiziologik jarayonlar bilib olingandagina turli kasalliklarning ta'sirini aniqlash, davolashning to'g'ri yo'llarini belgilash, eng asosiy, xastalikdan saqlanish usullarini topish mumkin.

Biz, olimlar oldida esa keyingi paytda duch kelinayotgan koronavirus, uning asoratlari, surunkali charchoq va boshqa yangi ko'rinishdagi xastaliklar fiziologiyasini tadqiq etishdek mas'uliyatli masala turibdi. Uning natijalari esa yangi dori vositalari yaratilishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, yurtimizda koronavirus infeksiyasiga qarshi birinchi marta pomidor o'simligidan to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilinadigan yangi avlod "COVID-19" vaktsinasi yaratilgani o'zbek olimlarining ilmiy salohiyati yuqori ekanligini tasdiqlab turibdi.

Olimlar tomonidan koronavirusning

fiziologiya kafedrasini mudiri, professor N. Danilov ilmiy rahbarligi ostida mazkur fan rivojiga munosib hissa qo'shgan olimlar yetishib chiqdi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, professor A. Yunusov, respublikada xizmat ko'rsatgan fan arboblari A. Hoshimov, G. Korotko, Z. Tursunov, K. Rahimov va professor A. Sodiqov shular jumlasidan.

Shu kabi zabardast olimlarning xizmatlari tufayli tibbiyot va biologiya fanlari negizida o'zbek fiziologiyasi paydo bo'lib, keyinchalik o'zi mustaqil fan sifatida rivoj topdi. O'zbekistonning fiziologiya sohasidagi yutuqlari jahon miqyosida e'tirof etilishida ularning ilmiy asarlari, tadqiqotlari muhim rol o'ynadi. Natijada 1975-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibida Fiziologiya instituti tashkil qilindi. Institutning birinchi rahbari etib taniqli fiziolog, professor Z. T. Tursunov tayinlandi.

Ushbu institutda fiziologiyaning turli yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar hosilasi o'laroq, yaratilgan ilmiy yangiliklar, fan yutuqlari Hamdo'stlik davlatlari, ko'plab xorijiy mamlakatlarda ham tan olindi. Natijada o'zbek fiziologlari juda qisqa fursat ichida fanga salmoqli yangiliklar kiritishga muvaffaq bo'lib, ilm dunyosida o'z yo'nalishi va maktabi bilan tanildi.

Qaltis vaziyat va yangi vazifalar

Dunyo bo'yicha kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'sirlari, xususan, haroratning ko'tarilishi, suv taqchilligi, ekin yerlarining tanazzulga uchrashi kabi qaltis ekologik holatlar insoniyat

yaratilyapti. Bunga biologiya fanlari doktori, akademik Ibrohim Abdurahmonov hamda ilmiy jamoaning sa'y-harakati bilan O'zbekistonda ilk bor DNK-markerga asoslangan seleksiyani yo'lga qo'yilgani keng imkoniyat ochib berdi.

Shu o'rinda aytish joizki, I. Abdurahmonov 33 yoshida g'o'zada "gen nokauti" (genlarni "o'chirib qo'yish") texnologiyasini qo'llab, o'simlikning bir qancha transgen formalarini olishga muvaffaq bo'lgan. Bu ish xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan munosib e'tirof etildi. 2010-yilda olim Butunjahon fanlar akademiyasi, 2013-yilda Xalqaro g'o'za maslahati kengashining mukofotlari bilan taqdirlandi.

Yurtimiz olimlari dunyo fanida birinchi bo'lib o'rta to'la genomidagi rekombinatsion bloklardan foydalangan holda, genlarni xaritalash nazariyasini ilgari surdi hamda uning asosida tekzor "assosiativ xaritalash" usulini yaratib, paxta tolasi sifatini, kasalliklarga chidamilligi va ertapisharligini boshqaruvchi yangi genlarni tavsifladi. Ushbu tadqiqot natijasida g'o'za tolasiyning pishiqligi, uzunligi, bir xilligi va boshqa xususiyatlari uchun javob beruvchi lokuslar xromosomaning qaysi qismida joylashgani aniq ko'rsatib berilgan.

Bu kabi ilmiy kashfiyotlar sohadagi kelgusi izlanishlar, xususan, mevasavzotchilik, pirovardida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun noyob manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Ulug' ustozlar yo'lidan

Fiziologiya fani hamisha fizika, matematika, genetika, informatica va kimyo qonunlariga tayanadi. U ko'p tarmoqli fan bo'lib, mehnat fiziologiyasi, jismoniy tarbiya va sport fiziologiyasi, psixofiziologiya, yosh fiziologiyasi va boshqa sohalarini o'z ichiga oladi. Qolaversa, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, o'sib rivojlanib kelayotgan organizm salomatligini, jismoniy va aqliy qobiliyatini baholash, sog'lom hayot kechirish asoslarini aniqlashda qo'l keladi. Shuning uchun bugungi kunda fiziologlarga bo'lgan talab har qachongidan ham yuqori, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ilgari Fiziologiya instituti mamlakatimizdagi barcha oliy o'quv yurtlarining Fiziologiya kafedralariga kadrlar yetkazib beradigan eng muhim ilmiy dargohga aylangan edi. Fan nomzodlari va doktorlari shu yerda yetishib chiqqan. Bugun ana shunday mohir kadrlar yetkazib berish zarurini qayta ulashning ayni mavridi keldi. Umid qilamizki, Fiziologiya ilmiy-tadqiqot markazi, uning qoshida iste'dodli yoshlarni birlashtiruvchi Yangi O'zbekiston yosh fiziologlari maktabi ushbu yo'nalishda ham yirik ilmiy markazga aylanadi.

Ilm-fan, ta'lim-tarbiya asosiga qurilayotgan yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans avlodini tarbiyalashda, avvalo, pedagog o'qituvchi va tarbiyachilarimiz ong, tafakkur, eslab qolish, bilish kabi fiziologik jarayonlarning chuqur mexanizmini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi o'ta zarur. Uni amaliyotda qo'llash orqali yoshlar fiziologiyasi, aniqlik, ularning tafakkuri va ongida o'zgarish bo'lib, bilim, ilm olish, eslab qolish qobiliyati yaxshilanadi, pirovardida ta'lim-tarbiyada sifat o'zgarishlariga erishiladi. Shuningdek, bugungi yosh avlodga bilim olish orqali dunyoni egallashi mumkinligining fiziologik mexanizmini o'rgatishimiz kerak. Bu borada O'zbekiston Milliy universitetida ibratli ishga qo'l urilgan.

Gap shundaki, universitetning iqtidorli talabalari, magistr lari va yosh ilmiy tadqiqotchilari markaz qoshida tuzilgan Yangi O'zbekiston yosh fiziologlari maktabiga jalb etilib, dolzarb mavzulardagi ilmiy izlanishlarga yo'naltirilayapti. Buning natijalari xalqaro doiralarda alohida e'tirof etilmoqda. Masalan, jahonda birinchi bo'lib O'zbekiston Milliy universitetida professor N. Otabekov hamraisligida o'tkazilgan COVID-19 bo'yicha xalqaro ilmiy konferensiyada 25 ta davlatdan olimlar qatnashdi. Unda so'z olgan Harvard universiteti professori R. Kuskah yurtimiz yoshlarining ilmiy ishlari va salohiyatiga katta baho berdi.

Markaz tomonidan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, AQSH va boshqa davlatlar bilan ilmiy aloqalarni mustahkamlash, NASA dasturi hamda xalqaro loyihalarda ishtirok etish maqsad qilingan. Oldimizda turgan eng ustuvor vazifa esa davlatimiz rahbarining sog'lom avlod va millatni kamol toptirishga qaratilgan chaqiriqlariga javoban "Najot — ta'limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda" degan shiorni amalga oshirishning fiziologik qonuniyatlarini ochib berib, dastur tuzish va omмага ishonchli tarzda yetkazishdir.

Eng asosiy, buyuk ustozlar boshlab bergan ilm maktabi qayta tiklanib, zamonaviy fiziologiyaning asosiy vazifasiga aylangan odam va hayvonlarning psixofiziologik faoliyati mexanizmini o'rganish jahasida yangi yutuqlarga mustahkam poydevor bo'ladi.

Bakridin ZARIPOV,
O'ZMU professori,
Fiziologiya ilmiy-tadqiqot markazi direktori,
Jahon fiziologlar jamiyati (Stokgolm) akademigi.

QISQA SATRLARDA

Huquqiy muhofaza yo'nalishidagi aloqalar faollashadi

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida AQSH Davlat kotibining Fuqarolar xavfsizligi, demokratiya va inson huquqlari bo'yicha o'rinbosari Uzra Zeya boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



Unda Bosh prokuratura bilan AQSH Davlat departamenti o'rtasida demokratik davlatning huquqiy asoslarini mustahkamlash, uni xalqaro andozalarga moslashtirish hamda inson huquqlari sohasida hamkorlikni tizimli asosda yanada faollashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

Samsarakda "IT shaharcha"

Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi Samsarak qishlog'ida "Villayt Samsarak: CREATIVE ECO IT VILLAGE" loyihasi taqdimoti bo'lib o'tdi. Shuningdek, ushbu hududda tashkil etilishi rejalashtirilgan "IT shaharcha" qurilishiga start berildi.

Ta'kidlash joizki, "IT shaharcha" hududda yoshlar o'z kasbini topishi, rivojlanishi va atrof-muhit bilan uyg'unlikda yashash orqali jamiyatga o'z hissasini qo'shishi, ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun noyob makon bo'lishi ko'zda tutilgan.

Choy festivali

Samarqand xalqaro texnologiya universiteti va bir qator korxonada tashkilotlar hamkorligida "Choy, madaniyat, tinchlik" nomli ikkinchi Samarqand festivali tashkil etildi.



Bu yilgi festivalda Xitoyning eng yaxshi choy navlaridan namunalar, "Amir Tea Samarqand" MCHJ tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotlar, shuningdek, xitoylik hamkorlar bilan birgalikda tayyorlangan xalqaro tematik fotoko'rgazma namoyish qilindi.

Aholi ichimlik suvi bilan ta'minlanadi

Marhamat tumanidagi "Yangi hayot" MFY hududida ikkita suv saqlash inshooti barpo etilib, 13 km. masofaga suv quvuri tortildi.

Hozirda har bir xonadonga suv jo'mraklari o'rnatildi. Loyihaning amalga oshirilishi natijasida tuman aholisini suv bilan ta'minlash darajasi 85 foizni tashkil etmoqda.

Yil yakuniga qadar bu ko'rsatkich keskin o'zgaradi. Zero, ta'minotni yaxshilash borasidagi ishlar tumaning boshqa manzillarida ham davom ettirilayapti.

"Xalq so'zi".

Afg'onistonda kuzatilgan tabiiy ofatdan zarar ko'rgan aholiga ko'mak ko'rsatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi nomidan insonparvarlik yordami yuborildi.

ISHONCHLI KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLAR VA TADBIRKORLIK TARAQQIYOTI

Birgina 2023-yil davomida 86 400 dan ortiq tadbirkorlik subyektlari tashkil etilib, ularda 2 million 421,5 mingdan ko'p ish o'rinlari yaratilgan. Yil davomida o'rta tadbirkorlik subyektlari tomonidan Davlat budgetiga 18,6 trn. so'mdan ortiq soliq to'langan.

Tadbirkorlik faoliyati kafolatlarini kuchaytiruvchi huquqiy normalar mamlakat Asosiy Qonunida aks ettirilishi, albatta, e'tiborga molik. Ushbu konstitutsiyaviy normalar, birinchi navbatda, tadbirkorlarga o'z faoliyatini dadil davom ettirishga kuch va ishonch bersa, ikkinchidan, davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatining o'rni va ahamiyatini oliy darajadagi qonunda asosli va o'rinni ravishda e'tirof etilishini anglatadi.

Yangilangan Konstitutsiyaning 67-moddasida "Davlat qulay investitsiyaviy va ishlabarmonlik muhitini ta'minlaydi" degan huquqiy norma mavjud. Bu konstitutsiyaviy norma bugun yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda hamda mavjud ishlabarmonlik muhitini yanada yaxshilashda muhim huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada 2023-yilda yurtimiz iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning hajmi 22 mlrd. dollardan oshdi va bu ko'rsatkich avvalgi yildagiga nisbatan 1,8 barobar ko'p.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham bir qator maqsadlar bevosita mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularga ko'ra, 2030-yilga qadar yurtimizda xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga 30 ta yirik turizm klasterini ochish va mehmon o'rinlari sonini kamida 2 barobarga kuchaytirish, hududlarning investitsiya reytingini yuritish, har bir hudud imkoniyatidan kelib chiqib, ularning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish choralarini ko'rish, asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy qilish hisobiga xususiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish nazarda tutilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlardan yana biri — monopoliy faoliyatning qonun bilan tartibga solinishi va cheklanishidir.

Ushbu qoida yangilangan Konstitutsiyaga kiritilgan yangi huquqiy norma bo'lib, undan ko'zlangan maqsad monopoliy sohalarni bozor tamoyillariga ichkil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritish uchun qulay sharoit va sof raqobat muhitini yaratish

hamda yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatdoshligini oshirishga qaratilgan.

Qolaversa, ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga kirish jarayonini tezlashtirishda hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim huquqiy asos vazifasini o'tab kelayapti. Jumladan, 2024-yil 15-fevralda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqdoshlashtirish nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, milliy qonunchilikdagi ayrim huquqiy normalar, xususan, intellektual mulk obyektlariga davlat ro'yxatidan o'tkazishga doir huquqiy normalar xalqaro standartlarga muvofiqdoshlashtirildi.

Oxirgi yillarda yurtimizda monopoliy sohalarni qisqartirish, ularga xususiy sektorni jalb qilish hamda bozor munosabatlarda erkin raqobat muhitini yaratishga qaratilgan muhim choratadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2023-yil iyulda "Raqobat to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilinib, u bilan yangi monopoliyalarni faoliyatini tartibga soluvchi qator

qonunchilik hujjatlari, jumladan, "Tabiiy monopoliyalarni to'g'risida"gi qonun bekor qilindi va sog'lom raqobat muhitini yaratishga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlar shakllantirildi. Natijada so'ngi yillarda bir qator sohalarda davlat monopoliyasi bekor qilinib, ularga xususiy sektor jalb etildi. Tovarlarining kelib chiqishi bo'yicha sertifikat berish, haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, qishloq xo'jaligi urug'larini sertifikatlash, temir yo'l vokzallari hududida xizmat ko'rsatish va o'lchash vositalarini qiyoslashdan o'tkazish kabi sohalarda shular jumlasidandir.

Yangilangan Konstitutsiyada tadbirkorlik faoliyatining kafolatlarini kuchaytirishga zamin yaratgan muhim huquqiy normalardan yana biri — yer uchastkalaridan xususiy mulk sifatida foydalanish imkonligini nazarda tutuvchi qoidadir. Ya'ni Asosiy Qonunning 68-moddasida ilk bor "Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin", degan muhim norma mustahkamlangan.

Yerning xususiy mulk sifatida berilishi imkonligi to'g'risidagi normaning amaliyotga joriy qilinishi muhim iqtisodiy islohot bo'lib, uni mamlakat Konstitutsiyasida aks

ettirishni, avvalambor, bozor munosabatlari rivojlanishi talab qilgan bo'lsa, ikkinchidan, fuqarolar va yuridik shaxslarning yerga bo'lgan huquqlarining ishonchli himoyasini ta'minlash taqozo etdi, desak, xato bo'lmaydi.

Yuqoridagi konstitutsiyaviy normaga asosan, xususiy mulk bo'lgan yer uchastkasi egasi uni haqiqiy mulkdor sifatida sotish, hadya qilish, ayirboshlash, garovga qo'yish va hattoki, uni merosga qoldirish huquqiga ega. Muhimi, bunday yerni davlat faqat mulkdor roziligi bilan, shartnoma asosida va haqiqiy bozor narxida baholatgandan so'ng jamoat ehtiyojlari uchun qayta sotib olishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, yurtimizda tadbirkorlarning manfaatlariga xizmat qiladigan islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad yagona — O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivoj toptirish va aholi uchun qulay shart-sharoit yaratib berish. Bu esa barchamizdan har bir vazifa ijrosiga katta mas'uliyat hissi bilan yondashishni talab qiladi.

Qahhor JUMAYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy siyosat
instituti yetakchi ilmiy xodimi.

YANGILANISH SHIDDATIDAN KUCH OLGAN YOSHLAR

Iste'dod, hayrat va olqishlar... Bu tushunchalar Qoraqalpog'iston Respublikasining Bo'zator tumanida uch yildan buyon o'tkazib kelinayotgan "Yoshlar ovozi" tanlovi mohiyatida mujassamdir. U shunchaki tanlov emas, do'stlik, san'at va imkoniyatlar bayramiga aylandi, desak, adashmaymiz.



Tanlov

"Bo'zator iqtidorlarni kashf etadi!" Bu so'zlar bugun yigit-qizlar dilliy tilida shior o'lqaro yangramoqda. Mamlakatimizning markazidan tortib chekka hududlarida yashayotgan, o'zining noyob iste'dodini ko'rsatishga intilayotgan yoshlar uchun mazkur musobaqa chin ma'nodagi minbarga aylangan. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 2-oktabrdagi qoraqalpog'istonlik yoshlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvdagi topshirig'i asosida yo'lga qo'yilgan ushbu tanlov orqali madaniyat va san'at sohasida yosh iste'dodlar kashf etilmoqda, ular har tomonlama qo'llab-quvvatlanayapti, katta sahnalarda o'z iqtidorini namoyish qilishi uchun keng yo'l ochib beryapti.

Tanlov ilk bor 2021-yil 2 yosh toifasi — 5 — 15 va 16 — 30 yoshlilar o'rtasida an'anaviy ijro va baxshichilik, opera, estrada yo'nalishlari bo'yicha uchta bosqichda — tuman, hudud, respublika miqyosida o'tkazildi. O'sha yili unda uch mingdan ortiq yoshlar qatnashib, 88 nafar respublika bosqichida o'zaro bellashdi. Tanlov g'olibi bo'lgan 18 nafar yoshdan bugungi kunga qadar 1 nafari "Shuhrat", 3 nafari "Kelajak bunyodkori" medallari, 2 nafari esa "Nihol" mukofoti bilan taqdirlandi.

2022-yilgi tanlovda 1-o'rinni qo'lga kiritgan 12 nafar iqtidorli yosh esa 2023-yilning 17 — 28-may kunlari Italiya davlatida malaka oshirib, "O'zbekiston madaniyati" haftaligida konsert dasturlari bilan ishtirok etdi. Shuningdek, an'anaviy ijro yo'nalishi g'olibi Sherbek Shavkatov o'tgan yili Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida bo'lib o'tgan "Nashe pokoleniye" xalqaro tanloviga, estrada yo'nalishi g'olibi Firdavs Avezov esa "Golos deti" tanloviga imtiyozli tarzda yuborildi. Qisqacha aytganda, yoshlarimiz xorijda ham o'zbek san'atini namoyish qilmoqda.

Qayd etish joizki, tanlovning bu yilgi bosqichi ham o'ziga xos shukhli kechdi. Respublika bosqichiga yo'llanma olgan iste'dod egalari Qoraqalpog'iston Respublikasining Bo'zator tumanida jam bo'ldi.

Joriy yil "Yoshlar ovozi" tanlovi mahallalarda yoshlar

bilan ishlash bo'yicha yaratilgan yangi tizim asosida tashkil etildi, ya'ni yoshlar yetakchilari tomonidan amalga oshirilgan targ'ibot tadbirlari natijasida 248,3 ming nafar yigit-qiz tanlovda qatnashdi. Ko'rinib turibdiki, bu yil ishtirokchilar soni oldingi yillardagiga nisbatan ancha oshgan. Baxshichilik, an'anaviy ijro, opera, estrada yo'nalishlari bo'yicha uch yosh toifasi — 10 — 15, 16 — 22, 23 — 30 yoshlilar o'rtasida o'tkazilgan tanlovda g'oliblar 5 ta — mahalla, sektor, tuman, hudud, respublika bosqichlarida saralandi.

152 nafar yosh o'zaro bellashgan tanlovning yakuniy bosqichini O'zbekiston Qahramoni Munajat Yo'lbegiyeva, O'zbekiston xalq artistlari Ismoil Jalilov va Mansur Toshmatov kabi xalqimiz ardo'g'idagi san'atkorlar, shuningdek, san'atshunos olimlardan iborat hakamlar hay'ati baholab bordi.

Respublika bosqichida 1-o'rinni egallaganlar 50 mln. so'mdan, 2-o'rinni qo'lga kiritganlar 30 mln. so'mdan, 3-o'rinni egallaganlar esa 20 mln. so'mdan pul mukofoti bilan taqdirlandi. Shuningdek, oxirgi bosqichgacha yetib kelgan 132 nafar ishtirokchi ham 10 mln. so'mdan pulga ega bo'ldi.

Ushbu tanlov hayotim kitobida yangi sahifalar ochdi va uni unutilmas lahzalar, yutuqlar, do'stlik bilan bezadi, — deydi opera yo'nalishi g'olibi Azizbek Usmonov. — Qoraqalpog'iston sari yo'l o'lar ekanmiz, "Aniq g'olib bo'lishim kerak", degan maqsadni oldimga qo'ymagandim. Niyatim o'z iqtidorimni ko'rsatish, boshqa yiloyatlardagi opera sohasini tanlagan do'stlarim bilan tanishish edi. Ne baxtki, g'oliblar safidan joy olish nasib etdi, buning uchun tashkilotchilarga alohida minnatdorlik bildiraman.

Yakunda taniqli san'atkorlar va tanlov g'oliblari ishtirokida gala-konsert namoyish qilindi. Unda Bo'zatorning 15 mingdan ortiq aholisi, yurtimizning turli hududlaridan kelgan mehmonlar, ko'plab sayyohlar haqiqiy san'at bayramiga guvoh bo'ldi.

Rahmatjon BOBOJONOV
("Xalq so'zi").

SPORT xabarlari

Digora Keldiyorova sovrindor bo'ldi



Birlashgan Arab Amirliklarida dzyudo bo'yicha o'tkazilayotgan jahon chempionatida terma jamoamiz a'zosi Digora Keldiyorova kumush medalni qo'lga kiritdi.

Bellashuvning 52 kilogrammgacha bo'lgan vazn toifasida ishtirok etgan hamyurtimiz finalda Olimpiada o'yinlarining ikki karra sovrindori, italiyalik Odette Juffridaga qarshi bahsda yutuqzab qo'ydi.

Eslatib o'tamiz, Digora Keldiyorova o'tgan yili Qatarda o'tkazilgan jahon chempionatida ham kumush medalni qo'lga kiritgandi.

Osiyo ochiq chempionatidan 7 ta medal

Vyetnamning Danang shahrida para taekvondo bo'yicha Osiyo ochiq chempionati bo'lib o'tdi.

E'tiborsiz, ushbu musobaqada 7 nafar sportchimiz g'olib va sovrindorlar safidan joy oldi. Xususan, nufuzli musobaqada Guljanoy Naimova (+65 kg.) oltin, Kamola Jo'rayeva (-57 kg.) kumush, Ziyoda Isoqova (-47 kg.), Zuxridin To'hirov (-63 kg.), Lochin Xoliqov (-70 kg.), Qudrat Muhammadiyev (-80 kg.) va Asad Toshmetirov (+80 kg.) bronza medallarga sazovor bo'ldi.

Dunyoning 27 davlatidan vakillar ishtirok etgan ushbu musobaqani terma jamoamiz umumjamoa hisobida ikkinchi o'rinda yakunladi.

Sitora Olimpiadaga boradi

Bokschimiz Sitora Turdibekova Parijda o'tkaziladigan yozgi Olimpiada o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Musobaqaning tashkiliy qo'mitasi Sitora Turdibekovani "Xanchjou — 2022" Osiyo o'yinlaridagi ishtiroki orqali Olimpiada o'yinlari qatnashchilari qatoriga kiritganini rasman tasdiqladi.

"Xalq so'zi".

AQLIY VA JISMONIY SALOHİYAT MANBAI

Bundan yetti-sakkiz yil muqaddam bolalarni bog'chaga kuzatishning o'zi bir azob edi. Kichikintoylar uyqudan uyg'onar-uyg'onmas, bog'chaga bormayman deb tixirlik qilgan, onalar ularni shirinliklar bilan alday, bazo'r yo'lga solishardi. Hozir vaziyat butunlay o'zgardi. Bugun jajji erkatoylar bog'chaga o'z'gacha bir ishtiyok, zavq bilan boradi. Hatto dam olish kunlari ham "bog'chaga boraman" deb xarxasha qiluvchilari topiladi. Maktabgacha ta'lim tizimiga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik nafaqat kattalar, balki kichikintoylar ongi-shuurida ham ana shunday o'zgarishlarni sodir etmoqda. ...Muhtasham zal bahor fasliga mos tarzda bezatilgan. Sahnada bolakay ichish uchun suv izlaydi. Idishlarning hammasi bo'sh. Onasi o'g'liga o'zgina suv qolgan, u ham loyqa ekanini aytadi. Suvni filtdan o'tkazib, o'g'liga berayotganda qo'shni ayol kirib keladi. U onasi betobligini, dori ichish uchun bir piyola toza suv berishini iltimos qiladi. Qo'shni suvni olib xursand bo'lib chiqib ketadi...

Maktabgacha ta'lim

Shu kuni suvni isrof qilmaslikka bag'ishlab aksiya o'tkazilgandi. Bir kun suv bo'lmasa o'ldi qanday muammolar yuzaga kelishini tarbiyachilar sahna ko'rinishi orqali ana shunday ifoda etishadi.

Ushbu sahna ko'rinishi orqali bolajonlar suvni tejash, behuda isrof qilmaslik borasida yetarli tushunchaga ega bo'lishdi, — deydi Zomin tumanidagi "Yorqin-Yulduz-Boychekach" nomli davlat-xususiy sheriklikdagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisi Norinisa Rahimova. — O'g'il-qizlarga quruq gap bilan suvni isrof qilmaslikni tushuntirgandan ko'ra, mana shu usulib yaxshi samara beradi. Bizga vazirlardan bir oylik ish reja keladi. Keyin u 4 haftaga bo'linadi. Aprel oyida "Yer sayyorasi — umumiy uyimiz" shiori ostida "Tabiatni asraylik" mavzuida mashg'ulotlar o'tkazdik. Sahna ko'rinishi shu mavzuga bag'ishlandi. Har oyning yakunlovchi mashg'ulotlarini ana shunday sahna chiqishlarida kichikintoylarga namoyish etamiz. Bolalarimiz sahna ko'rinishlaridan olgan taassurotlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini

rivojlantiradilar. Mashg'ulotlarda bolalarga mavzuni hikoya qilib berish, yodlatish kabi usullar eskirdi. Fikrlash, kuzatish orqali ularning dunyoqarashini shakllantirish davr taqozosiga aylanmoqda. Bunda tarbiyachilarning ijodkorligi qo'l keladi.

Bugungi kunda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga sog'lom raqobat asosida bolalarga xizmat ko'rsatishning sifat va samaradorligini oshirishga harakat qilmoqda. Mazkur muassasada tartib-intizom, sanarjoni-sarishtalik ko'zga yaqqol tashlanadi. Hovlida bir qarich yer ham behuda turmaydi. Tuvakdagi tabiiy gullar tillari katta guruhlarda mashg'ulot, kichik va o'rta guruhlarda esa to'g'rik sifatida o'tilmoqda. Bolalarni aqliy va jismoniy rivojlantirishda Feruza Eshiyeva, Kamola Turdiboyeva, Surayyo Hasanova, Durdon Eraliyeva singari tarbiyachilarning xizmati tahsinga loyiq. Ularning ko'pchiligi turli ko'rik-tanlovlar ishtirokchisi va g'oliblari bo'lishgan.

— Bog'chamizda o'lkashunoslik muzeyi tashkil etilgan, — deydi xodima Ro'za Sharafutdinova. — Muzeyda uzoq tariximizni eslatuvchi uy-ro'zg'or buyumlari, ov va ish qurollari, taqinchoqlar, milliy liboslar jamlangan. Bunday eksponatlar o'g'il-qizlarimizda milliy qadriyatlarimizga qiziqish va hurmatini oshirmoqda. "Ilk qadam" dasturiga mos keladigan muzeyni ochishda muassasamiz direktori Inobat Mirziyoyevaning xizmati katta. Rahbarimiz mashg'ulotlarni mintazam kuzatib boradi. Faoliyatimizga so'nggi yutuqlarni joriy etish borasida o'zining maslahatlari, tavsiyalarini ayamaydi. Tuman miqyosida tarbiyachi va rahbarlar uchun seminar-treninglar tashkil qilishga yordam beradi.



ekilgan bodring, bulg'or qalampir va ko'katlarni sug'orish, ishlov berishda tarbiyachilarga yordam berishadi. Cho'milish havzasida, sun'iy qoplamali stadionda minifutbol o'yinab, horqiq chiqarishadi.

Bog'cha kutubxonasida "Bolalar ensiklopediyasi", jahon adabiyoti namunulari mujassam. Bolalar bunday asarlarni o'qiy olmasada, o'zlar uchun yozilgan asarlar muallifi va nomlarini bilib olishadi. Taniqli ijodkorlar, ularning hayoti bilan tanishadi. Kutubxonada tarbiyachilar uchun metodik tavsiyalar, qo'llanmalar, qo'shimcha adabiyotlar jamlangan.

Shuningdek, bog'chada taekvondo, badiiy gimnastika, musiqa to'garaklari faoliyat olib bormoqda. Rus va ingliz tillari katta guruhlarda mashg'ulot, kichik va o'rta guruhlarda esa to'g'rik sifatida o'tilmoqda. Bolalarni aqliy va jismoniy rivojlantirishda Feruza Eshiyeva, Kamola Turdiboyeva, Surayyo Hasanova, Durdon Eraliyeva singari tarbiyachilarning xizmati tahsinga loyiq. Ularning ko'pchiligi turli ko'rik-tanlovlar ishtirokchisi va g'oliblari bo'lishgan.

— Bog'chamizda o'lkashunoslik muzeyi tashkil etilgan, — deydi xodima Ro'za Sharafutdinova.

Qayd etish joizki, maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda nodavlat ta'lim muassasalarining ulushi ortmoqda. Bugungi kunda viloyatda 1305 ta xususiy, oilaviy va davlat-xususiy sherikligidagi nodavlat MTT faoliyat ko'rsatmoqda. Bu kabi o'zgarishlar Yurtboshimizning "Maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, biz uchun hayot-mamot masalasidir", degan so'zlarining hayotga izchil tatbiq etilayotganining amaliy ifodasidir.

Abdusattor SODIQOV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI QUYIDAGI KAFEDRALAR BO'YICHA LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

— Estrada xonandaligi kafedrasida — o'qituvchi (2);
— Estrada cholg'u ijrochiligi kafedrasida — katta o'qituvchi (1), dotsent (2);
— Estrada ijrochiligi pedagoglari tayyorlash kafedrasida — o'qituvchi (3), katta o'qituvchi (1), dotsent v.b. (1);
— Musiqiy nazariya va tarixiy fanlar kafedrasida — o'qituvchi (1), katta o'qituvchi (1);

— Estrada orkestr dirijyorligi kafedrasida — o'qituvchi (2).

Tanlovda ishtirok etish uchun da'vogarlar quyidagi hujjatlarni taqdim qilishlari lozim:
rektor nomiga ariza;
xodimlar shaxsiy varaqasi;
oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom va attestatlarining nusxalari;

o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlar ro'yxati;
mutaxassislik bo'yicha oxirgi uch o'quv yilida malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma va sertifikatlar nusxasi.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati

institutining xodimlar bo'limi tomonidan qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko'chasi, 1-uy. O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti.

Telefonlar: 97-139-35-25, 90-989-13-89.

2024-yilda poytaxtimizda davlat tibbiy sug'urta mexanizmlari joriy etiladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542, 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabaq. O'lset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxonaa 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va umalligiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazilishi uchun ommaviy rasmniyashitirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi haunda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhib Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaa manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.50 Topshirildi — 23.40 1 2 3 4 5 6